



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EISSN 2181-2187

6 (92) 2026

Сопредседатели редакционной коллегии:

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:
М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
У.О. АБИДОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОИВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Д.Т. АШУРОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВА
А.С. ИЛЪЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Б.Б. ХАСАНОВ
Д.А. ХАСАНОВА
Б.З. ХАМДАМОВ
Э.Б. ХАККУЛОВ
Г.С. ХОДЖИЕВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

6 (92)

www.bsmi.uz
https://newdaymedicine.com
E: ndmuz@mail.ru
Тел: +99890 8061882

2026
Апрель

Received: 20.05.2026, Accepted: 06.06.2026, Published: 10.06.2026

UDK 616.728.3-002-073.432.19:616.379-008.64

EKSPERIMENTAL O'PKA FIBROZIDA PROSTATATA BEZINING IMMUNOGISTOKIMYOVIY TEKSHIRISH NATIJALARI

Fayzullayev Komiljon Nabijonovich <https://orcid.org/0009-0000-8539-8449>
Teshayev Shuxrat Jumayevich Тешаев Ш.Ж. <https://orcid.org/0009-0002-1996-4275>

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston, Buxoro sh. A. Navoiy ko'chasi
1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ Rezyume

Maqolada eksperimental o'pka fibrozida prostata bezining immunogistokimyoviy tekshirish natijalari keltirilgan. Immunogistokimyoviy tekshiruv natijalariga ko'ra, nazorat guruhidagi oq zotsiz kalamushlarning prostata bezida CD20 markerining ekspressiyasi 3 oylik davrda 0,85 %, 6 oylikda 2,57 %, 9 oylikda esa 7,34 % ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar yosh ortishi bilan B-limfotsitlarning faolligi asta-sekin oshishini ko'rsatadi. O'pka fibrozi chaqirilgan guruhda CD20 markerining ijobiy bo'yalishi nazoratga nisbatan sezilarli ravishda yuqori bo'lib, 3 oylikda 13,68 %, 6 oylikda 15,18 %, 9 oylikda esa 27,05 % ga yetdi. Bu esa o'pka fibrozi sharoitida prostata bezida gumoral immun javobning keskin kuchayishini, B-limfotsitlarning interstisial va perivaskulyar sohalarda faol to'planishini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: o'pka fibrozi, oq kalamush, prostata bezi, immunogistokimyoviy tekshirish, morfofunktsional o'zgarishlar, ekspressiyalanish darajasi.

РЕЗУЛЬТАТЫ ИММУНОГИСТОХИМИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ ПРЕДСТАТЕЛЬНОЙ ЖЕЛЕЗЫ ПРИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОМ ФИБРОЗЕ ЛЁГКИХ

Файзуллаев Комилжон Набижонович, <https://orcid.org/0009-0000-8539-8449>
Тешаев Шухрат Джумаевич, <https://orcid.org/0009-0002-1996-4275>

Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сино, Республика
Узбекистан, г. Бухара, ул. А. Навои, 1. Тел.: +998 (65) 223-00-50 E-mail: info@bsmi.uz

✓ Резюме

В статье представлены результаты иммуногистохимического исследования предстательной железы при экспериментальном фиброзе лёгких. Согласно результатам иммуногистохимического исследования, экспрессия маркера CD20 в предстательной железе белых беспородных крыс контрольной группы составила 0,85 % в 3-месячном возрасте, 2,57 % — в 6-месячном и 7,34 % — в 9-месячном возрасте. Эти показатели свидетельствуют о постепенном повышении активности В-лимфоцитов с возрастом. В группе с индуцированным фиброзом лёгких положительное окрашивание маркера CD20 было значительно выше по сравнению с контролем и достигало 13,68 % в 3 месяца, 15,18 % в 6 месяцев и 27,05 % в 9 месяцев. Это подтверждает резкое усиление гуморального иммунного ответа в предстательной железе в условиях фиброза лёгких, а также активное накопление В-лимфоцитов в интерстициальных и периваскулярных зонах.

Ключевые слова: фиброз лёгких, белая крыса, предстательная железа, иммуногистохимическое исследование, морфофункциональные изменения, уровень экспрессии.

RESULTS OF IMMUNOHISTOCHEMICAL EXAMINATION OF THE PROSTATE GLAND IN EXPERIMENTAL PULMONARY FIBROSIS

Komiljon Nabijonovich Fayzullayev, <https://orcid.org/0009-0000-8539-8449>
Shukhrat Jumayevich Teshayev, <https://orcid.org/0009-0002-1996-4275>

Abu Ali ibn Sino Bukhara State Medical Institute, Bukhara, Uzbekistan 1 A. Navoi Street, Bukhara,
Uzbekistan Tel: +998 (65) 223-00-50 E-mail: info@bsmi.uz

✓ *Resume*

The article presents the results of an immunohistochemical examination of the prostate gland in experimental pulmonary fibrosis. According to the immunohistochemical findings, the expression of the CD20 marker in the prostate gland of white outbred rats in the control group was 0.85% at 3 months, 2.57% at 6 months, and 7.34% at 9 months of age. These findings indicate a gradual increase in B-lymphocyte activity with advancing age. In the pulmonary fibrosis group, positive staining for the CD20 marker was significantly higher than in the control group, reaching 13.68% at 3 months, 15.18% at 6 months, and 27.05% at 9 months. These results confirm a marked enhancement of the humoral immune response in the prostate gland under conditions of pulmonary fibrosis, accompanied by active accumulation of B-lymphocytes in the interstitial and perivascular regions.

Keywords: pulmonary fibrosis, white rat, prostate gland, immunohistochemical examination, morphofunctional changes, expression level.

Dolzarbligi

Butun dunyoda hozirgi kunda nafas tizimi kasalliklari eng global sog‘liq muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Amerika torakal jamiyatining 2023-yildagi ma‘lumotlariga ko‘ra, har yili surunkali respirator kasalliklardan 4 millionga yaqin kishi vafot etadi va bu butun dunyo bo‘ylab o‘limning to‘rtinchi asosiy sababi hisoblanadi, 200 milliondan ortiq kishi surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi bilan kasallanib, o‘pka fibrozi bilan asoratlanadi [1,2]. O‘pka fibrozida prostata bezida interstisial shish, kanalchalar hajmining pasayishi, va distrofik o‘zgarishlar kuzatiladi. Ko‘rinib turibdiki, o‘pka fibrozidagi gipoksiya holati normal rivojlanish va gomeostaz jarayonlarida muhim rol o‘ynaydigan apoptoz va proliferatsiya jarayonlarini buzadi [3]. Bugungi kunda yildan yilga oshib borayotgan erkaklar bepusulida va ayniqsa Covid-19 pandemiyasidan keyingi o‘pka fibrozi holatlarida reproduktiv tizimdagi morfologik o‘zgarishlar, jumladan prostata bezi morfometrik xususiyatlarini o‘rganish zamonaviy morfologiyaning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda [4, 5].

Tadqiqot maqsadi: me‘yorda va eksperimental o‘pka fibrozida prostata bezining immunogistokimyoviy xususiyatlarini o‘rganishdan iborat.

Material va usullar



Tajribada tadqiqotni amalga oshirish uchun nazorat va tajribadagi guruhlardan 3, 6 va 9 oylik 130 ta oq zotsiz erkak jinsdagi kalamushlar ajratib olingan. Tajribaning boshida barcha kalamushlar 21 kun davomida karantinda bo‘lib, somatik yoki yuqumli kasalliklarni istisno qilingandan so‘ng, kuniga 3 mahal ovqatlanish bilan odatdagi vivarium rejimiga o‘tkazilgan. Kalamushlar 3 ta katta asosiy guruhlarga ajratilgan. (n=130): I - nazorat guruhi (n=30); II - guruh – tajribada o‘pka fibrozi chaqirilgan guruh (n=55); III- guruh – tajribada o‘pka fibrozi chaqirilgan va anor danagi moyi bilan korreksiya qilingan guruh (n=45). Shu tartibda I-guruhda 3 oylik 10 ta, 6 oylik 10 ta va 9 oylik 10 ta; II-guruhda 3 oylik 16 ta, 6 oylik 20 ta va 9 oylik 19 ta ; III-guruhda 3 oylik 10 ta, 6 oylik 18 ta va 9 oylik 17 ta hayvonlar olingan. Tadqiqot uchun tanlab olingan hayvonlarning 100 tasi bilan tajriba guruh shakllantirilgan. Qolgan 30 ta kalamush nazorat guruhiga birlashtirilgan. Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishga Buxoro davlat tibbiyot institutining etik qo‘mita tomonidan tasdiqlangan “Tajribaviy hayvonlardan foydalangan holda ishlarni bajarish qoidalari” (16.01.2018 yil, 18-son) bilan tartib qoidalariga amal qilingan holda o‘tkazilgan.

Ilmiy tadqiqotda Bleomitsin dori vositasi yordamida tajribada o‘pkalarda yallig‘lanish orqali o‘pka fibrozi chaqirilgan. II- guruhdagi kalamushlarga 1 oy davomida bleomitsin dori vositasi 4 marotaba endotraxeal (1,5 YeD/kg tana masasiga) mos holda haftasiga bir marotaba yuborilgan. III-guruhda o‘pka fibrozi chaqirilgan guruhdagi kalamushlarni korreksiya maqsadida anor danagi moyi har kun metall zond orqali intragastral kiritilgan, yoshiga mos ravishda 3 oylik kalamushlarga 0.04 ml (1 tomchi) dan, 6 va 9 oylik kalamushlarga esa 0.08 ml (2 tomchi) dan yuborilgan. Hayvonlarning umumiy ahvoli va xulq-atvorida hech qanday o‘zgarish bo‘lmaganligi aniqlangan. Shundan so‘ng tajriba hayvonlari ertalab taroziga tortilib, och qoringa efir yordamida dekapitatsiya qilingan. Ajratib olingan materiyallar gistologik preparatlar tayorlash bosqichlaridan o‘tgandan keyin yupqa kesmalar tayyorlanib, Gemotoksilin–eozin va Van-gizon usulida bo‘yalgan. Olingan natijalar, morfometrik tekshirishlar G.G. Avtandilov va QuPhat 4.4.0 dasturi asosida amalga oshirilgan, shu bilan birgalikda

immunogistokimyoviy usuldan foydalanib nazorat va tajriba guruhlaridagi prastata bezi to‘qimasidagi CD20 markerining ekspressiyasi baholangan. Natijalarni baholashda QuPhat 4.4.0 dasturi yordamida morfometrik tekshirishlar 5 ko‘ruv maydonida 200-400 marta kattalashtirilgan holda bajarilgan. Ekspressiyalanish darajasi 20% bo‘lganda (past darajadagi ekspressiya), 20-60% bo‘lganda (o‘rta darajadagi ekspressiya) va 60% dan yuqori bo‘lganda (yuqori darajadagi) deb baholangan.


Natija va tahlillar

CD20 markerlari bu gumoral immunitet hujayralari hisoblanadi, bu hujayralar suyak kumigida o‘zak hujayralaridan xosil bulib va shu yerdan boshlab bu hujayralarning tabaqalanishi boshlanadi. Bu hujayralarning tabaqalanish bosqichlari o‘zak hujayralari va undan keyin erta va kechki ularning o‘tmishdoshlari va nihoyat yetilgan B- limfotsitlar keyinchalik limfoid organlarga timus, taloq va limfoid tugunlarga amalga oshadi. Shunday qilib CD20 markerlari B- limfotsitlarning menbranasida joylashgan oqsil hisoblanadi. Ya’ni membrana markeri hisoblanadi. Bu oqsil B- limfotsitlarning aktivligi va proliferatsiyasiga ishtirok etadi. Shunday qilib bu oqsil B- limfotsilar bog‘liq bo‘lgan immun reaksiya javobida ishtirok etadi ya’ni gumoral immun javob hisoblanadi. Bu oqsil B- limfotsitlar tabaqalanishining erta bosqichlarida boshlanib to plazmatik hujayralarga aylanganga qadar menbranasida saqlaydi. Plazmatik hujayralarga aylanganda esa bu aniqlanmaydi. Bundan tashqari bu oqsil B- limfotsit tabiatli xavfli o‘smalarda ham aniklanadi. Bizning tadqiqotimizda bu markerni tanlashdan maksad shu buldiki, tajribaviy o‘pka fibrozi chaqirilgan guruhlarda prostata bezida yuzaga keladigan patomorfologik o‘zgarishlarda aynan shu B- limfotsilarning ishtirokini baxolash va organizmning bu patologik jarayonlarda antitelalar ishlab chiqarish tizimi ya’ni gumoral immun xolatining qay darajada ishtirokini baxolash nazarga tutildi va bu o‘zgarishlarni turli yosh davrlaridagi javob reaksiyasining farqli tomonlari mavjudlini va qay daraja farqli tomnlarini o‘rganildi. Tadqiqodda tanlab olingan nazorat guruhidagi 3, 6 va 9 oylik oq zotsiz kalamushlarning prostata bezidan ajratib olingan to‘qimalarda CD20 markerlari ekspressiyasi o‘rganib chiqildi va quyidagi natijalar olindi.




Umumiy aniqlangan hujayralar soni	137
Pozitiv hujayralar	2
Negativ Hujayralar	135
Pozitiv Ekspresiya	1,46 %
Umumiy maydon	2211908 px ²

1-rasm. Nazorat guruhidagi 3 oylik oq zotsiz kalamush prostata bezi to‘qimasi namunasi (namuna 1812/10) CD20 markerining pozitiv ekspressiyasi. B-limfotsitlarning bo‘yalishi. Dab xromogen usulida bo‘yalgan. 40x10 o‘lchamda kattalashtirilgan tasvir QuPath-0.4.0.ink. dasturida skaner qilingan va ekspressiyalanish darajasi aniqlangan. Ekspressiyalangan hujayralar qizil rangda ko‘rsatilgan. Musbat ekspressiya 1,46 %.



Umumiy aniqlangan hujayralar soni	1113
Pozitiv hujayralar	36
Negativ Hujayralar	1077
Pozitiv Ekspresiya	3,23 %
Umumiy maydon	221199 px ²

2-rasm. Nazorat guruhidagi 6 oylik oq zotsiz kalamush prostata bezi to‘qimasi namunasi (namuna 1826/10) CD20 markerining pozitiv ekspressiyasi. B-limfotsitlarning bo‘yalishi. Dab xromogen usulida bo‘yalgan. 40x10 o‘lchamda kattalashtirilgan tasvir QuPath-0.4.0.ink. dasturida skaner qilingan va ekspressiyalanish darajasi aniqlangan. Ekspressiyalangan hujayralar qizil rangda ko‘rsatilgan. Musbat ekspressiya 3,23 %.




Umumiy aniqlangan hujayralar soni	487
Pozitiv hujayralar	16
Negativ Hujayralar	471
Pozitiv Ekspresiya	3,28 %
Umumiy maydon	2202798 px ²

3-rasm. Nazorat guruhidagi 9 oylik oq zotsiz kalamush prostata bezi to‘qimasi namunasi (namuna 1836/10) CD20 markerining pozitiv ekspressiyasi. B-limfotsitlarning bo‘yalishi. Dab xromogen usulida bo‘yalgan. 40x10 o‘lchamda kattalashtirilgan tasvir QuPath-0.4.0.ink. dasturida skaner qilingan va ekspressiyalanish darajasi aniqlangan. Ekspressiyalangan hujayralar qizil rangda ko‘rsatilgan. Musbat ekspressiya 3,28 %.

Tadqiqotdagi 3 oylik nazorat guruhidagi prostata bezi tuhimalaridagi gistologik materiallar tahlilida CD20 markerining ekspressiyalanishi o‘rtacha ko‘rsatkichi 0,85 % ni tashkil qildi (1- ramga qarang), 6 oylikda esa 2,57 % ni tashkil qildi va 9 oylik esa 7,34 % tashkil qildi (2 va 3- ramga qarang). Demak nazorat guruhidagi ok zotsiz kalamush prostata bezi to‘kimasida B-limfotsitlarning ishtiroki past darajada


ekanligi aniqlandi. Yosh dinamikasi oshib borishi davomiyligida nisbatan oshib borishi kuzatilganligi aniqlandi.

Tajribada o'pka fibrozi chaqirilgan guruhdagi oq zotsiz kalamushlarning prostata bezi to'qimalaridan ajratib olingan gistologik to'qimalarni CD20 markerlar ekspressiyalanishi o'rganib chiqilganda quyidagi o'zgarishlar aniqlandi.




Umumiy aniqlangan hujayralar soni	1520
Pozitiv hujayralar	208
Negativ Hujayralar	1312
Pozitiv Ekspresiya	13,68 %
Umumiy maydon	1510864 px ²

4-rasm. Tajribada opka fibrozi chaqirilgan guruhdagi 3 oylik oq zotsiz kalamush prostata bezi to'qimasi namunasi (namuna 1836/10) CD20 markerining pozitiv ekspressiyasi. B-limfotsitlarning bo'yalishi. Dab xromogen usulida bo'yalgan. 40x10 o'lchamda kattalashtirilgan tasvir QuPath-0.4.0.ink. dasturida skaner qilingan va ekspressiyalanish darajasi aniqlangan. Ekspresiyalangan hujayralar qizil rangda ko'rsatilgan. Musbat ekspressiya 13,68 %.



Umumiy aniqlangan hujayralar soni	1647
Pozitiv hujayralar	250
Negativ Hujayralar	1397
Pozitiv Ekspresiya	15,18 %
Umumiy maydon	152632 px ²

5-rasm. Tajribada opka fibrozi chaqirilgan guruhdagi 3 oylik oq zotsiz kalamush prostata bezi to'qimasi namunasi CD20 markerining pozitiv ekspressiyasi. B-limfotsitlarning bo'yalishi. Dab xromogen usulida bo'yalgan. 40x10 o'lchamda kattalashtirilgan tasvir QuPath-0.4.0.ink. dasturida skaner qilingan va ekspressiyalanish darajasi aniqlangan. Ekspresiyalangan hujayralar qizil rangda ko'rsatilgan. Musbat ekspressiya 15,18 %.



Umumiy aniqlangan hujayralar soni	935
Pozitiv hujayralar	253
Negativ Hujayralar	682
Pozitiv Ekspresiya	27,05 %
Umumiy maydon	1530816 px ²

6-rasm. Tajribada opka fibrozi chaqirilgan guruhdagi 9 oylik oq zotsiz kalamush prostata bezi to‘qimasi namunasi CD20 markerining pozitiv ekspressiyasi. B-limfotsitlarning bo‘yalishi. Dab xromogen usulida bo‘yalgan. 40x10 o‘lchamda kattalashtirilgan tasvir QuPath-0.4.0.ink. dasturida skaner qilingan va ekspressiyalanish darajasi aniqlangan. Ekspressiyalangan hujayralar qizil rangda ko‘rsatilgan. Musbat ekspressiya 27,05 %.

Tadqiqotdagi tajribada o‘pka fibrozi chaqirilgan 3 oylik ok zotsiz prostata bezi tuhimalaridagi gistologik materiallar tahlilida CD20 markerining ekspressiyalanishi o‘rtacha ko‘rsatkichi 13,68 % ni tashkil qildi (4-ranga qarang), 6 oylikda esa 15, 18 % ni tashkil qildi (5- ranga qarang) va 9 oylik esa 27.05 % tashkil qildi (6-ranga qarang). Bu guruhdagi natijalar taxlili shu ma‘lum bo‘ldiki 3 va 6 oylikda past darajada hamda 9 oylikda o‘rta darajada ekspresiyalanganligi aniqlandi. Ekspresiyalanish asosan bez to‘qimasining interstisial to‘qimasi va tomirlar atrofidagi perivaskulyar sohada ekanligi aniqlandi. Bundan ma‘lum bo‘ldiki o‘pka fibrozida prostata bezi to‘qimasida B- limfotsitlarning ishtrokining nazorat guruhiga nisbatan ancha oshganligini ko‘rish mumkin.

Xulosa

Immunogistokimyoviy tekshiruv natijalariga ko‘ra, nazorat guruhidagi oq zotsiz kalamushlarning prostata bezida CD20 markerining ekspressiyasi 3 oylik davrda 0,85 %, 6 oylikda 2,57 %, 9 oylikda esa 7,34 % ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichlar yosh ortishi bilan B-limfotsitlarning faolligi asta-sekin oshishini ko‘rsatadi.

O‘pka fibrozi chaqirilgan guruhda CD20 markerining ijobiy bo‘yalishi nazoratga nisbatan sezilarli ravishda yuqori bo‘lib, 3 oylikda 13,68 %, 6 oylikda 15,18 %, 9 oylikda esa 27,05 % ga yetdi. Bu esa o‘pka fibrozi sharoitida prostata bezida gumoral immun javobning keskin kuchayishini, B-limfotsitlarning interstisial va perivaskulyar sohalarda faol to‘planishini tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Антонов А.Г., Гамылин К.И., Величко Д.Н., Гордеев В.В. Взаимосвязь между течением COVID-19 и уровнем половых гормонов у мужчин. Экспериментальная и клиническая урология. 2024;17(2):52-57. doi:10.29188/2222-8543-2024-17-2-52-57.
2. Колесникова Л.И., Колесников С.И., Курашова Н.А., Байрова Т.А. Причины и факторы риска мужской фертильности. Вестник Российской академии медицинских наук. 2015;70(5):579-584. doi:10.15690/vramn.v70.i5.1445.
3. Визель А.А., Визель И.Ю., Амиров Н.Б. Идиопатический легочный фиброз: состояние проблемы. Вестник современной клинической медицины. 2017;10(1):14-21. doi:10.20969/VSKM.2017.10(1).14-21.
4. Коган Е.А., Тьонг Ф.В., Демура С.А. Механизм ремоделирования легочной ткани при прогрессировании идиопатического легочного фиброза. Архив патологии. 2010;72(4):30-36.

Qabul qilingan sana 20.05.2026